

**OMON MUXTOR ROMANLARIDA REALIZM, MODERNIZM  
VA POSTMODERNIZM UYG‘UNLIGI**

*Yuldosheva Umida*

*O‘zbekiston Respublikasi Sirdaryo viloyati*

*Guliston davlat universiteti “Adabiyotshunoslik”*

*yo‘nalishi tayanch doktoranti*

**OMON MUXTOR ROMANLARIDA REALIZM, MODERNIZM  
VA POSTMODERNIZM UYG‘UNLIGI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada adabiy oqimlar bo‘lgan realizm, modernizm, postmodernizm haqida ilmiy ma’lumotlar berilgan. Ularning shakllanishi, talablari izohlanilgan. Adib Omon Muxtorning romanlarida realizm, modernizm, postmodernizm uyg‘un holda namoyon bo‘lishi “Ffu” romani tahlili asosida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Realizm, modernizm, postmodernizm, хаос, “muallif o‘limi” konsepsiyasi, janrlar uyg‘unligi.

**ГАРМОНИЯ РЕАЛИЗМА, МОДЕРНИЗМА И ПОСТМОДЕРНИЗМА В  
РОМАНАХ ОМОН МУХТОР**

**Абстрактный.** В этой статье представлена научная информация о литературных течениях, таких как реализм, модернизм и постмодернизм. Объясняется их формирование и требования. На основе анализа романа «Ффу» выделены реализм, модернизм и постмодернизм, гармонично проявленные в романах Адиб Амона Мухтара.

**Ключевые слова.** Реализм, модернизм, постмодернизм, хаос, концепция «смерти автора», жанровое совмещение.

## **HARMONY OF REALISM, MODERNISM AND POSTMODERNISM IN OMON MUKHTOR'S NOVELS**

**Abstract.** This article provides scientific information about literary movements such as realism, modernism, and postmodernism. Their formation and requirements are explained. Realism, modernism, and postmodernism harmoniously manifested in the novels of Adib Amon Mukhtar are highlighted based on the analysis of the novel "Ffu".

**Keywords.** Realism, modernism, postmodernism, chaos, concept of "death of the author", combination of genres.

XXI asrda rivojlanish va o'zgarishlar tezkor sur'atlarda kechmoqda. Hattoki, adabiy oqimlar ham tubdan o'zgarishga yuz tutgan. Buning asosi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, psixologik va ijtimoiy ongda tub burilish yasamoqda. Kishilarning dunyoqarashi, talablari o'zgarib bormoqda. Xuddi shunday, bu evrilishlar adabiyotni ham chetlab o'tgani yo'q albatta. Adabiyotda realizm uzoq vaqt hukumronlik qildi. Realizm – hayotni o'z holicha, qanday bo'lsa shunday, haqqoniy, butun tavsilotlari bilan tashvirlash edi. Ammo hayotdagi o'zgarishlar natijasida modernizm realizmdan ustun kelmoqda. "Realizm borliqni aks ettirsa, modernizm yangi reallik yarataman deydi. Chunki mavjud rellikni tuzatib bo'lmaydi deb hisoblaydi. Modernizm olamni xaos (yunoncha – tartibsizlik ma'nosini bildirib, yunon mifologiyasida azaliy cheksiz fazoni anglatadi – izoh bizniki) deb biladi va undan qochadi. Tashqi dunyoda go'zallik yo'q, uni botindan qidirish kerak deb o'ylaydi. Shu bilan birga, antroposentrik gumanizmni ya'ni insonga muhabbatni yoqlab chiqadi" [1-14]. Modernizmni adabiy oqim sifatida shakllanishiga insonlar hayotidagi o'zgarishlar, jahon urushlari va ularning oqibatlari, inson hayotidagi qiyinchiliklar, yaxshi va farog'atda yashashga ishonchning yo'qolishi, tushkunlik sabab bo'ldi. Endi odamlar go'zallik va ezgulikni borliqdan emas, ichki olamdan izlay boshlashdi. Bu, ayniqsa, san'at sohalarida yaqqol

bo‘y ko‘rsatdi. Chunki, aynan san‘at inson va uning tuyg‘ularini tasvirlaydi. Shu jumladan, adabiyotda ham aks etdi. Endi yozuvchilar atrof-olamni tasvirlash, ijtimoiy muammoni ko‘tarib chiqishdan ko‘ra yakka shaxsning kechinmalariga urg‘u berishdi. Modernizmning talabi shunday edi.

Modernizmning izidan postmodernizm dunyoga keldi. “POSTMODERNIZM (fr. Postmodernisme – modernizmdan keying) – o‘tgan asrning ikkinchiyarmidan adabiyot va san‘atda, umuman ijtimoiy-gumanitar sohalarda kuzatila boshlagan oqim, ijodiy metod” [2-227].

Postmodernizm modernizmga teskari hodisa deb baholasak ham, uning izdoshi sifatida shakllandi desak ham noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Negaki, avval modernizm shakllandi, so‘ng insonlarning dunyoqarashlaridagi keskin o‘zgarishlar postmodernizmni dunyoga keltirdi. Modernizm va postmodernizmning deyarli barcha omillari bir-birini inkor etadi. Modernizmda obyekt insonning ichki olami, postmodernizmda esa butun borliq, olam. Realizmdan farqi esa, realizm olamni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qiladi, postmodernizm esa olamga kinoyaviy munosabatda bo‘ladi. Ushbu oqim vakillari modernizmga o‘xshab go‘zallikni botindan izlab o‘tirishmadi, ular go‘zallik va baxtga yetishib bo‘lmaydi, hayotda mazza qilib, muammolarning ustidan kulib yashash yo‘lini tutishdi. Modernizmda yozilgan asarlar faqat xos kishilar uchun edi, postmodernizmda esa asarlar ikki tomonlama kodlashtirildi – oddiy xalq o‘qisa ham tushunadi, xos kishilar o‘qisa yangi ma’nalarni topadi. Eng muhim farqlaridan biri ijodkor konsepsiysiga munosabat edi. Modernizmda muallif eng muhim subyekt bo‘lib, asar mazmun mohiyatini belgilaydi. Asarda muallif kechinmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Postmodernizmda esa “muallif o‘limi” ilgari surildi. Ya’ni, bu oqimning fikricha muallif umuman yo‘q bo‘lib, u shunchaki ko‘rgan-bilganlarini, o‘zidan oldingi yozilgan asarlarni va tassurotlarni jamlab, qayta ishlovchi kishi. Modernizmda janrlar o‘rtasidagi chegaraga qat’iy amal qilingan bo‘lsa, postmodernizmda janrlar qorishig‘i hodisasi kuzatiladi. Umuman olganda,

postmodernizm barcha kanonlar (adabiy qonunlar – izoh bizniki)ni buzib talqin qiladi, u qoidalarga amal qilmaydi, qanday xohlashsa, shunday yozishadi. Yevropada tugʻilgan ushbu oqimlarning shabodasi bizning yurtimizda ham esmoqda. “Oʻzbek adabiyotida postmodern izlanishlar, ayniqsa, nasrda yaqqol boʻy koʻrsatyapti. O. Muxtor, X. Doʻstmuhammad, N. Eshonqul, R. Rahmat, I. Sulton, M. Karim, Sh. Ahmedov, U. Hamdam kabi yozuvchilar ijodida postmodernizmning turli koʻrinishlari uchraydi” [1-70] – deya taʼkidlaydi adabiyotshunos olim, adib va shoir Ulugʻbek Hamdam. Omon Muxtorning asarlarini postmodernizmning ham, modernizmning ham namunasi deb qatʼiy xulosa berib boʻlmaydi. Boisi, unda modernizmdan koʻra koʻproq postmodernizm oqimi talablari mavjud. Modernizmga xos bir insoning botini, ruhiy olami diqqat markaziga olingan boʻlsada, muallif bir inson taqdiri asosida shu davrdagi koʻplab insonlar, jamiyat hayoti va ichki olamidagi oʻzgarishlar, oʻz-oʻzi bilan kurashlarni tasvirlab bergan. “Koʻzgu oldidagi odam” asaridagi Valijon, “Tepalikdagi xaroba” asaridagi Mirzagʻolib shunday qahramonlarimizdan. Ular yolgʻon mafkura va goʻyalarga ishonib, oʻzligini, oʻz yoʻlini yoʻqotib qoʻyishgan. Yana muallif asarlarining eʼtiborli jihatlaridan biri shuki, unda janrlar qorishiq holda keladi. Roman ichida sheʼrlar, rivoyatlar, hikmatli soʻz va maqollar keladi. Koʻp hollarda ular qahramonlarning ichki kechinmalari izohi sifatida keltirigan va bu kitobxonni qahramon bilan birlashishiga yordam beradi.

Ulugʻbek Hamdamov: “Omon Muxtorning qator romanlaridagi tushkunlik, parokandalik, tushuniksizlik postmodern kayfiyatni aks ettiradi” [1-71]- deya muallif romanlari haqida fikr bildiradi. Ammo Omon Muxtorning romanlarini butkul postmodernizm yoʻnalishida yozilgan deb boʻlmaydi. Negaki, muallifning asarlarida sharqona ruh, sharqona dunyoqarash va tarbiya aks etib turadi. Postmodernizm tushkunlik, mavhumlik muhim boʻlsa, Omon Muxtor romanlarining nihoyasi hamisha ezgulik boʻlgan. Tushkunlik, chorasizlikda qolgan barcha qahramonlari hayotni, oʻzligini anglash orqali toʻgʻri yoʻlni topa bilgan. Jurnalist Ahmad Otaboy Omon



Muxtor bilan bo‘lgan suhbatida muallifga asarlarining yakuni yorug‘ talqin bilan xotima topishini asoslab berishini so‘raydi. “...Endi o‘zinning asarlarimga kelsak, to‘g‘ri aytdingiz, ular hammasi yorqin yakunlangan. Va bu meni to‘la qoniqtirqdi. Bu balki tarbiydandir... Men tug‘ilganimda Buxoroda to‘ntarish bo‘lganiga atigi yigirma yil bo‘lgan edi. Hali o‘sha eski davr odamlari, sharqona tarbiya bor edi” [ttq-422] – deb izoh bergan edi muallif o‘z asarlari haqida. Bu asarlarni butkul realizm oqimidagi asarlar deb ham baho berolmaymiz. Ulardagi yangilik yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Shaklda ham, mazmunda ham yangicha uslub bor. Muallif o‘zi ta’kidlab o‘tganidek har bir asari uchun original shakl qidirgan. Realizmda hamma uchun tushunarli asar yozish tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Omon Muxtor romanlarini esa tushunish murakkabroq. Muallif “Ko‘zgu oldidagi odam” romanining boshlanishida kirish so‘z yozgan va unda: “Kimdir asarni hayotiy, kimdir g‘irt to‘qilgan ekan, der.

Shakli kimgadir murakkab, kimgadir jo‘n tuyular. Yoki, kimdir uni boshqa asarlarga qiyoslagisi kelar... Men uchun bu – ahamiyatsiz! Hovuzdan har kim o‘z chelagi bilan suv tortadi”,- degan jummalarni ham keltirib o‘tadi. Hamma uchun tushinilishi shart bo‘lmagan asar yozish modernizmning bir elementi. Omon Muxtor romanlari realizm, modernizm, postmodernizm elementlarini uyg‘unlashtirgan asarlardir. Albatta, bunda muallifning poetik mahorati, iste’dodi, dunyoqarashi va ilmi muhim ahamiyatga ega. Uning asarlarida tushkunlik ham, ezgulik ham, yakka shaxs kechinmalari va uning jamiyatga oid tomonlari ham aks etgan. Yozuvchi Odil Yoqubov: “Asarning juda ko‘p fazilatlaridan tashqari, - syujetning, kompozitsion qurilishining g‘aroyibli va hokazo, - yana bir xususiyati borki, bu haqda alohida aytish lozi. Gap shundaki, asar biz o‘rganib qolgan va adabiyotning eng kata yutug‘i deb hisoblab kelgan an’anaviy usul, ya’ni sotsiolistik realizm usluiga batamom zid, yangi uslub asosida yozilgan. Bu asarda Markes romanlarining shabodasi yaqqol sezilib turadi”,- deb baho beradi Omon Muxtorning “To‘rt tomon qibla” trilogiyasiga. Shu sababli, Omon Muxtor romanlarini original va universal asarlar deya e’tirof etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Postmodernizmchilar yozuvchi asarni mavjud matnarning parchalaridan terib, tayyor mahsulatni qayta ishlaydi degan fikrni ilgari surishadi va asrda muallif emas, asarni o‘qib, undagi mazmuni teran anglay olgan o‘quvchi muhim deb qarashadi. Ular muallifni ijodkor maqomidan butkul tushurib, shunchaki skriptor (so‘zlarni terib, matn yaratuvchi)ga aylantirib qo‘yishadi. Omon Muxtor bunday qarashdan butkul yiroq, “muallif o‘limi” konsepsiyasi tarafdori bo‘lmasa ham romanlarida o‘qib bilgan asarlari parchalariga ko‘p murojaat qilar edi. Bu albatta, asarni yanada voqealarini ta’sirli va qiziqarli bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Omon Muxtor har doim oddiylikdan qochgan. Shuning uchun ham durdona asarlar yarata olgan.

Omon Muxtorning “Ffu” romani ham mana shunday yangicha uslubda, ustozlar ijodidan parchalar olib, yangi asar mohiyatini ochib berishda yangitdan ishalandi, yangi vazifa yuklatildi. Muallifning o‘zi ham asar boshlanishida quyidagicha kirish so‘z keltirib o‘tadi:

“Bu yozganim barchasi - eski gap.

Bironta yangi gap yo‘q! Topolmaysiz.

Lekin sizni eki gaplar...

qiziqtirmaydimi?!

Mening otam (eski odam edilar!) bir kuni baribir orqaga qaytasan, derdilar.

Men oldinga qarab yugurar edim...

Bu kun qayta boshladim” [3-5]. Aarda nafaqat mazmun va uslub, balki shakl ham yangicha ko‘rinishga ega. Juda ko‘p xatboshilardan foydalanganligi yuqoridagi parchadan ham ma’lum.

Romanda o‘ttizdan ziyod ko‘chirmalardan foydalanilgan va bu asarga yangicha ruh va joziba baxsh etgan.

“Ffu” romanidagi ko‘chirmalar:

1. “Qornimga yig‘lamayman, qadrimga yig‘layman” [3-6]
2. “Chuchvara tugishdan murod – go‘sht yeyish” [3-6].
3. “Xudoyo, rahmat ayla qo‘l ochib omin deganlarni!” [3-8]
4. “Bilmadimki, bu jahon foniy-u, kajraftor ekan,  
Yaxshilar doim yomonning hojatiga zor ekan!” [3-22]
5. “Kimki bizga qarshi tursa ,  
Shartta-shartta otamiz!” [3-23]
6. “Zakovat! Tutilib qayerda –yo‘lda,  
Menga yetib kelding nega buncha kech?!” [3-61]
7. “Norasolar oqibat bo‘ldi raso mehnat bilan!!!” [3-64] (Habibiy).

Bunday ko‘chirmalarga muallif roman davomida ko‘plab murojaat qiladi. Ushbu ko‘chirmalarni manbasiga ko‘ra uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Asarlardan olingan parchalar;
2. She‘riy parchalar;
3. Maqol va hikmatli so‘zlar.

Omon Muxtor ularni o‘z o‘rnida mahorat bilan qo‘llay olganki, ular asarga singib ketgan va jumalarda hech bir g‘alizlik sezmaydiz. Turli asarlarda yig‘ilgan jumlar ham yagona asar sifatida tizimlashtirilgan va o‘zining yangi mazmunini kashf etgan. Endi ular yangi asar qahramonlarining holatlari va vaziyatlari haqida xabar bermoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Hamdamov U. “Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm”. T.: Akadernashr, 2020.

2. Quronov D. (va boshqalar) “Adabiyotshunoslik lug‘ati”. T.: Akademnashr, 2010.
3. Omon Muxtor. “Ayollar mamlakati va saltanati”. T.: Sharq nashriyoti, 1997.

